

**Journal of**  
**Natural  
science**

**No5  
2021**

**<http://natscience.jspi.uz>**



<u>ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ</u>	<u>ТАҲРИРИЯТ АЪЗОЛАРИ</u>
<p><b>Бош муҳаррир –</b> У.О.Худанов т.ф.н., доц.</p> <p><b>Бош муҳаррир ёрдамчиси-Д.К.Мурадова,</b> PhD, доц.</p> <p><b>Масъул котиб-</b> Д.К.Мурадова</p>	<ol style="list-style-type: none"><li>1. Худанов У.О. – ЖДПИ Табиий фанлар факултети декани, т.ф.н., доц.</li><li>2. Шылова О.А.-д.х.н., профессор Института химии силикатов им. И.В. Гребенщикова Российской академии наук (ИХС РАН)</li><li>3. Маркевич М.И.-ф.ф.д. проф Белорусия ФА</li><li>4. Elbert de Josselin de Jong- профессор, Niderlandiya</li><li>5. Кодиров Т- ТТЕСИ к.ф.д, профессор</li><li>6. Абдурахмонов Э – СамДУ к.ф.д., профессор</li><li>7. Сманова З.А,-ЎзМУ к.ф.д., профессор</li><li>8. Султонов М-ЖДПИ к.ф.д,доц</li><li>9. Яхшиева З- ЖДПИ к.ф.д, проф.в.б.</li><li>10. Рахмонкулов У- ЖДПИ б.ф.д., проф.</li><li>11. Мавлонов Х- ЖДПИ б.ф.д., проф</li><li>12. Абдурахмонов Ғ- ЎзМУ фалсафа фанлари доктори (кимё бўйича) (PhD), доц</li><li>13. Хакимов К – ЖДПИ г.ф.н., доц.</li><li>14. Азимова Д- ЖДПИ фалсафа фанлари доктори (биология бўйича) (PhD), доц</li><li>15. Юнусова Зебо – ЖДПИ к.ф.н., доц.</li><li>16. Гудалов М- ЖДПИ фалсафа фанлари доктори (география фанлари бўйича) (PhD)</li><li>17. Мухаммедов О- ЖДПИ г.ф.н., доц</li><li>18. Хамраева Н- ЖДПИ фалсафа фанлари доктори (биология фанлари бўйича) (PhD)</li><li>19. Рашидова К- ЖДПИ фалсафа фанлари доктори (кимё бўйича) (PhD), доц</li><li>20. Мурадова Д- ЖДПИ фалсафа фанлари доктори (кимё фанлари бўйича) (PhD), доц</li></ol>
<p><b>Муассис-Жиззах давлат педагогика институти</b></p>	
<p>Журнал 4 марта чиқарилади (ҳар чоракда)</p>	
<p>Журналда чоп этилган маълумотлар аниқлиги ва тўғрилиги учун муаллифлар масъул</p>	
<p>Журналдан кўчириб босилганда манбаа аниқ кўрсатилиши шарт</p>	

Жиззах давлат педагогика институти Табиий фанлар факултети

Табиий фанлар-Journal of Natural Science-электрон журнали

[/http://www.natscience.jspi.uz](http://www.natscience.jspi.uz)

**JIZZAX VILOYATI TOG' VA TOG' OLDI TUMANLARI  
SHAHARLARI RIVOJLANISHIDA HUDUDIY-GEOGRAFIK  
IMKONIYATLAR**

*G'aprov Azimbek Nazarovich.*

Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari kafedrası katta o'qituvchisi

*Yaxshilikov Abduvohid*

Geografiya o'qitish metodikasi yo'nalishi 4-kurs talabasi

**Аннотация.** Стáтья посвящена на тему развития городов в различных географических условиях. Именно, на горных и предгорных территориях Джизакской области находятся перспективные населённые пункты для урбанизации в целой области а также для конкретных территории. В статье анализируется демографические и географические аспекты этих населённых пунктов а также перспективные направления развития этих территорий.

**Ключевые слова:** горные и предгорные районы, города и городские посёлки, перспективы развития.

Jizzax viloyati tog' va tog' oldi hududlarida joylashgan Jizzax, Baxmal, G'allaorol, Zomin, Forish, Yangiobod tumanlarida aholi punktlarining hududiy joylashuvi va shakllanish jihatlari bir-biriga yaqin bo'lsada, ushbu tumanlar tabiiy resurslaridan foydalanish imkoniyatlariga muvofiq ravishda ularda bir qancha tafovutlar kuzatiladi. Yuqorida ta'kidlanganidek tog' tumanlarida aholi joylashuv tizimlari qadimdan shakllangan, qishloq va shahar aholi punktlarining rivojlanishi turli omillar bilan bog'liqdir. Tog'li tumanlar aholi punktlarining sonini bir – biriga nisbatan qiyoslaganda, ayniqsa qishloqlarng ko'pligini ko'ramiz. Eng avvalo, aholi punktlarining tumanlar bo'yicha zichligidagi tafovutlar ko'zga tashlanadi. Bunda qishloqlar, shahar va shaharchalar ham birgalikda hisobga olinadi.

Jizzax viloyati tog'li tumanlari aholi punktlarining hududiy nisbatlari (2020 yil)

№	Ma'muriy hududlar nomi	Maydoni ming km.kv	Aholi punktlarining soni	Aholi punktlarining zichligi. Har 100 km kv ga. AP.
1.	Baxmal	1,86	99	5,3
2.	Sh. Rashidov	0,45	45	10
3.	Zomin	2,87	82	2,8

4.	Forish.	9,67	112	1,2
5.	Yangiobod.	0,72	30	4,1
6	G’allaorol	1,95	109	5,6

Jizzax viloyat statistika boshqarmasi ma’lumotlari asosida tuzildi

Ma’lumotlardan ko’rinib turibdiki, tumanlar bo’yicha aholi punktlarining zichligi turlicha. Bu tumanlarda aholi joylashuv tizimlarining tabiiy sharoit va resurslardan foydalanish imkoniyatlari bilan bog’liq ekanligidadir. CHunonchi, Forish tumanida aholi punktlarining soni eng ko’p bo’lgani holda tuman maydonining juda kattaligi va bu maydonning asosiy qismi Qizilqum va Aydarko’l atrofidagi tekisliklardan iboratligi, binobarin aholi joylashuvining bir tomonlama bo’lishi kuzatiladi. Bu borada Baxmal va G’allaorol tumanlarida aholi punktlari son va joylashuv jihatidan boshqa tumanlarga nisbatan qulay ekanligi ko’zga tashlanadi. Jizzax tumani hududida aholi punktlari zichligi tobora ortib borishi kutiladi, chunki ushbu tuman aholi joylashuvi uchun eng qulay sharoitga egadir.

Jizzax viloyatining tog’ va tog’ oldi hududlarida tashkil etilgan tumanlar qadimdan aholi xo’jalik faoliyati yuritib kelayotgan hududlardir. Asrlar davomida shakllangan xo’jalik tizimi asosan tabiiy resurslardan foydalanish bilan bog’liq bo’lganligi uchun aholi suv havzalari bo’ylarida sug’orma dehqonchilik; bog’dorchilik, sabzavotchilik va uzumchilik bilan, adirlar va tog’ yonbag’irlarida lalmikor donchilik, yaylov chorvachiligi bilan shug’ullangan, binobarin, aholi punktlarining aksariyati qishloqlardir. Garchi, ba’zi arxeologik topilmalar qadimda hunarmandqilik va savdo-sotiq rivojlanganidan guvohlik bersada, ayni vaqtda qishloq turmush tarzi va qishloq ko’rinishidagi aholi punktlari viloyat tog’ va tog’ oldi hududlarida asosiy o’rin tutadi. Sanoatning ba’zi tarmoqlari va transport tizimining shakllanishi yirik qishloqlarga shahar maqomining berilishiga sabab bo’ldi, lekin bunday aholi punktlarida aholi qishloq turmush tarzi bilan yashamoqda.

O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 14 iyuldagi “O’zbekiston Respublikasi aholi punktlarining ma’muriy – hududiy tuzilishini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida” gi 120-sonli maxsus qarorini amalga oshirish yuzasidan O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan 2009 yil 13 martda “O’zbekiston Respublikasi aholi punktlarining ma’muriy – hududiy tuzilishini takomillashtirishga doir qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida” gi 68-sonli Qaroriga binoan 2009 yildan viloyat hududidagi 34 qishloq aholi punktiga shahar maqomi berildi. SHu tarzda viloyatning urbanizatsiya ko’rsatkichlarida keskin o’zgarish yuzaga keldi. Tog’ va tog’ oldi hududlarida joylashgan tumanlar urbanizatsiya ko’rsatkichlarida ham birmuncha o’zgarish kuzatiladi.

Viloyat tog’li tumanlar aholi punktlarining tarkibining o’zgarishi haqida  
MA’LUMOT

№	Ma’muriy hududlar nomi	Aholi punktlarining soni					
		1989		2000		2020	
		Shaharlar va shahar tipidagi qo’rg’onlar	Qishloqlar	Shaharlar va shahar tipidagi qo’rg’onlar	Qishloqlar	Shaharlar	Qishloqlar
1.	Baxmal	1	102	1	102	7	92
2.	Sh. Rashidov	2	46	2	46	7	38
3.	Zomin	2	80	2	80	5	77
4.	Forish.	1	112	1	112	2	110
5.	Yangiobod.	-	30	-	30	2	28
6	G’allaorol	2	106	2	106	7	102

Jizzax viloyat statistika boshqarmasi ma’lumotlari asosida tuzildi

Jadvaldan ko’rinib turibdiki, aholi punktlari tarkibida shaharlar soni ko’paygan, lekin bu shaharlarning barchasini to’la ma’noda shahar deb bo’lmaydi, chunki shahar turmush tarzi deyarli shakllanmagan. 2009 yilga qadar viloyatda markaz Jizzax shahridan tashqari, tumanga bo’ysinuvchi Dashtobod, Gagarin, Do’stlik, Paxtakor, G’allaorol kabi shaharlar, O’smat, Bo’ston, Zarbdor, Zomin, Zafarobod, Qo’ytosh, Marjonbuloq, Yangiqishloq, Uchquloq kabi shahar tipidagi posyolkalar hisobga olingan. 2009 yil mart oyidan so’ng ko’plab qishloqlarga shahar maqomi berildi va endilikda viloyatda urbanizatsiya darajasining ko’tarilishi kuzatilmoqda (3-jadval).

Shaharlarni aholi soni bo’yicha tabaqalashtirish jarayonida eski va yangi shaharlar o’rtasida katta tafovut borligi ko’rinadi. Shaharlarini aholi soni bo’yicha tabaqalashtirishda asosan aholi soni 2000 dan 5000 gacha, 5001-10 000 kishigacha, 10 000-20 000 kishigacha, 20 000-50 000 kishigacha, 50 000 dan 100 000 kishigacha,

100 000 dan 500 000 gacha 500 000 dn 1 000 000 gacha, va 1 000 000 dan ortiq boʻlgan shaharlar ajratiladi. Bu usulni viloyat hududiga, xususan togʻli tumanlarga joriy qilinganda doira ancha torayadi. Quyidagi jadval maʼlumotlarida Jizzax shahri hisobga olinmagan holda tumanlardagi shaharlar, ulardagi aholi soni, shaharlarning tabaqalari va ularning viloyat shaharlari miqdoridagi ulushi keltiriladi.

Viloyatda shaharlarning aholi soni boʻyicha tabaqalanishi haqida maʼlumot.  
(Jizzax shahridan tashqari)

№	Tumanlar	Shahar- lar soni	Viloyat shaharlarining aholi soni boʻyicha taqsimlanishi.			
			200- 5000	5000-10 000	10 000- 20 000	20 000- 50 000
1.	Arnasoy	2	1	0	1	0
2.	Baxmal	7	6	0	1	0
3.	Doʻstlik	2	0	1	1	0
4.	Sh. Rashidov	7	1	1	5	0
5.	Zomin	5	2	1	1	1
6.	Zarbdor	4	1	1	2	0
7.	Zafarobod	4	3	1	0	0
8.	Mirzachoʻl	3	2	0	1	0
9.	Paxtakor	2	0	1	0	1
10	Forish.	2	1	1	0	0
11	Yangiobod.	2	2	0	0	0
12	Gʻallaorol	7	3	3	0	1
14	<b>Viloyat boʻyicha</b>	<b>47/100 %</b>	22/46,8 %	10/21,3%	12/25,5%	3/6,4%

Jizzax viloyat statistika boshqarmasi maʼlumotlari asosida tuzilgan

Jadvalda keltirilgan maʼlumotlar asosida viloyatning togʻ va togʻoldi hududlariga ega tumanlaridagi shahar va shaharchalarning aholi nisbati boʻyicha tasnifini shakllantirish mumkin. Bunday usul bilan ushbu hududlardagi shaharlarning bir- biriga nisbatan tutgan oʻrni va kelajakda rivojlantirish imkoniyatlari haqida xulosalar beriladi. Statistika nuqtai nazardan keltirilgan tahlillar shaharlar aholisining miqdori va umumiy miqdorga nisbatan foizlardagi koʻrsatkichlarini ifodalaydi. Bu bilan aholi punktlarining shahar maqmoigacha qanchalik muvofiq kelishi hamda hududiy

rivojlanishga ko'rsatadigan ahamiyati bo'yicha tadqiqotlar yo'l ochiladi. Ayni raqamlar asosida aholi punktlarining hududiy funksiyalari va iqtisodiy ahamiyatini belgilash mumkin.

Tog' va tog' oldi hududlarida joylashgan tumanlar shaharlari aholi soni bo'yicha tabaqalanishi va ulushi.

№	tumanlar	Shaharlar		Jami shahar aholisi kishi (2020 01.01.)		Shaharlarning aholi soniga ko'ra tasnifi							
		soni	Viloyatga nisbatan %			2000-5000		5000-10000		10000-20000		20000-50000	
				soni	%	soni	%	soni	%	Soni	%	soni	%
1	Baxmal	7	14,8	43262	6,5	6	85,7	0	0	1	14,3	0	0
2	Sh. Rashidov	7	14,8	86759	13,9	1	14,3	1	14,3	5	71,4	0	0
3	Zomin	5	10,6	69772	10,7	2	40	1	20	1	20	1	20
4	Forish.	2	4,2	19173	2,7	1	50	1	50	0	0	0	0
5	Yangiobod.	2	4,2	6067	0,9	2	100	0	0	0	0	0	0
6	G'allaorol	7	14,8	61681	9,8	3	42,9	3	42,9	0	0	1	14,3

Jizzax viloyat statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida tuzilgan

Ma'lumotlarga tayanib shuni aytish mumkinki, viloyat tog' va tog' oldi tumanlarida shaharlarning rivojlanishi va kengayishi uchun imkoniyatlari yetarli. Garchi ko'pgina shaharchalar qishloq sharoiti holatida va ularni shaharlashtirish uchun ko'p ish talab qilinsada, qurilish, oziq – ovqat, transport, xizmat ko'rsatish shuningdek turizm va rekreatsiya yo'nalishlarida olib boriladigan ishlar shaharchalarning rivojlanishiga kuchli ta'sir ko'rsata oladi. Alohida ta'kidlanadigan jihat sifatida Zomin va G'allaorol tumanlarida mavjud bo'lgan aholisi 20 000 dan 50 000 gacha hisoblanadigan nisbatan kata shaharlar tumanlarda shaharlashish jarayonini jadallashtirishda tayanch vazifasini bajaradi.

Ushbu tumanlardagi shaharlar viloyatning umumiy taraqqiyotida asosiy o'rin tutadi. Bu shaharlarni rivojlantirish uchun eng zamonaviy shaharsozlik va shaharshunoslik nazariyalari va amaliyotiga tayanib ish tutish, texnologik va madaniy resurlardan unumli foydalanish maqsadga muvofiq.

**Foydalanadigan adabiyotlar.**

1. Важенин А.А. Эволюционные процессы в рассеивающих системах. Ур О РАН. Екатеринбург. 1997 год.
2. Gapparov, A., Naydarova, S., & Kayumova, M. (2020). Жиззах вилоятида урбанизация жараени ва унга таъсир этувчи омиллар. *Архив Научных Публикаций JSPI*.
3. Gapparov, A. N. (2020). Characteristics of population development in Uzbekistan. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 10(11), 572-578.
4. Гаппаров, А. Н. (2020). ТЕРРИТОРИАЛЬНОЕ ОПИСАНИЕ УРБАНИСТИЧЕСКОЙ СТРУКТУРЫ ДЖИЗАКСКОЙ ОБЛАСТИ. *Экономика и социум*, (11), 567-572.
5. Холмирзаев, Ж. Э., & Соибназаров, Д. (2021). СУВ РЕСУРСЛАРИНИНГ ГЕОГРАФИК ТАРҚАЛИШИ ВА ГЕОКИМЁВИЙ ТАРКИБИ ХАҚИДА МУЛОҲАЗАЛАР (Жиззах вилояти мисолида). *Журнал естественных наук*, 1(4).
6. Холмирзаев, Ж. Э. (2021). HYDROGRAFIK TARMOKLARNING TERRITORIES VIDELANISH REGULARITIES (GIZZAH TORIDA). *Экономика и социум*, (4-2), 648-654.
7. Каримов, И. Э., & Абдуллаев, И. Х. (2020). ГЕОГРАФИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ФУНКЦИОНИРОВАНИЯ ДЖИЗАКСКОГО ВОДОХРАНИЛИЩА. In *ФУНДАМЕНТАЛЬНЫЕ И ПРИКЛАДНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ В ГИДРОМЕТЕОРОЛОГИИ, ВОДНОМ ХОЗЯЙСТВЕ И ГЕОЭКОЛОГИИ* (pp. 97-100).
8. Usmanov, M. (2020). Аграр соҳадаги ислоҳатлар ва уларнинг ўзига хос хусусиятлари. *Архив Научных Публикаций JSPI*, 1-6.
9. Хакимов, К. М., & Рахматуллаева, М. Т. (2021). ЖИЗЗАХ ВИЛОЯТИ ГИДРОНИМЛАРИ ВА УЛАРНИ НОМЛАШ ХУСУСИЯТЛАРИ. *Журнал естественных наук*, 1(5).
10. Adilova, O. (2021). ҒЎБДИН ТОҒИДА ЧЎЛЛАНИШ ЖАРАЁНИГА ТАЪСИР ЭТУВЧИ ИНДИКАТОРЛАР. *Журнал естественных наук*, 1(2).